

TTPU DA QABUL IMTIHONI BO'LIB O'TDI.

oriy yilning, 13 may kuni Toshkent shahridagi Turin Politeknika Universitetida 2022/2023 o'quv yili uchun birinchi kirish imtihonlari bo'lib o'tdi.

Abituriyentlar "Mashinasozlik texnologiyasi", "Avtomobilsozlik texnologiyasi", "Kompyuter injiniringi", "Dasturiy injiniring", "Sanoatda xo'jalik qurilishi va arxitektura", "Arxitektura va dizayn" bakalavriat yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonini topshirdilar.

Ular bilimi quyidagi savollar bo'yicha baholandi:

Matematika: 18 ta savol (vaqt: 40 daqiqa)

O'qib tushunish: 6 ta savol (vaqt: 12 daqiqa)

Mantiq: 6 ta savol (vaqt: 12 daqiqa)

Fizika: 12 ta savol (vaqt: 26 daqiqa) Imtixon jarayonlarining shaffofligini nazorat qilish maqsadida, Politecnico di Torino (Italiya) universiteti professorlari imtihonda ishtirok etdilar. Ota-onalar test topshirish jarayonini onlayn kuzatib, o'zlarining qiziqtirgan barcha savollariga universitet rektori J.Sh.Inoyatkhodjaev bilan muloqot orqali batafsil javob olish imkoniyatiga ega bo'lishdi.



